

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

SANBETOVA AMANGUL TURKMENBAYEVNA

**ELEKTROTEXNOLOGIYA ASOSIDA EKOLOGIK SOF
URUG‘LIK KARTOSHKKA YETISHTIRISH**

05.05.07-Qishloq xo‘jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor
of philosophy (PhD) on technical sciences**

Sanbetova Amangul Turkmenbaevna Elektrotexnologiya asosida ekologik sof urug‘lik kartoshka yetishtirish.....	3
Санбетова Амангул Туркменбаевна Выращивание экологически чистого семенного картофеля на основе электротехнологии.....	21
Sanbetova Amangul Turkmenbaevna Cultivation of environmentally friendly seed potatoes based on electrical technology.....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	42

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

SANBETOVA AMANGUL TURKMENBAYEVNA

**ELEKTROTEXNOLOGIYA ASOSIDA EKOLOGIK SOF
URUG‘LIK KARTOSHKKA YETISHTIRISH**

05.05.07-Qishloq xo‘jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4256 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tiiame.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxammadiyev Ashiraf
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muratov Xakim Maxmudovich
texnika fanlari doktori, professor

Boqiyev Abdujoolol Abdulhamidovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.10.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel: (+99871) 237-09-45; faks: (+99871) 237-38-79, e-mail admin@tiiame.uz).

Dissertatsiya bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (100000, Toshkent Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel: (+99871) 237-09-45; faks: (+99871) 237-38-79, e-mail admin@tiiame.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____ dagi № ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.S.Mirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

U.T.Quziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent.

A.J. Isaqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘i, jumladan kartoshka urug‘ini sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, ekologik sof, kasallik va zararkunandalarga chidamli urug‘lik va tovar iste‘molchi uchun kartoshka yetishtirish hisobiga yer yuzi aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida energiya va resurstejamkor hamda ish unimi yuqori bo‘lgan agrotexnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etishni ta‘minlaydigan texnik vositalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda¹.

Jahonda va Respublikamizda hozirgi davrda oziq-ovqat uchun ishlatiladigan o‘simliklar, bug‘doy va guruch mahsulotlaridan so‘ng “Ikkinchi non” deb atalishi bejiz emas. Shu bois ham ushbu mahsulotning son va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish imkonini beradigan ekologik sof agrotexnologiyalar va resurstejamkor texnikalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shu jihatdan urug‘lik kartoshkaga va undan unib chiqqan o‘simlikka vegetatsiya davrida bosqichli elektr ishlov berishni ta‘minlaydigan agroelektrotexnologiyani ishlab chiqish va uning maqbul rejim parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda kartoshka dunyoning 160 dan ortiq mamlakatlarida jami 19.5 mln gektar maydonda ekilib, har yili 390 mln. tonnadan ortiq kartoshka hosili yetishtirilmoqda. Xitoy, Hindiston, Rossiya, Ukraina, AQSH, Germaniya, Fransiya, Polsha, Gollandiya va Belorussiya davlatlarida katta maydonlarda ekib yetishtiriladi. Dunyoda kartoshka ishlab chiqarishni oshishi asosan innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishi hisobiga to‘g‘ri keladi. AQSH, Germaniya, Fransiya va Gollandiyada o‘rtacha hosildorlik 45,7-47,9 t/ga ni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-fevraldagi PQ-3558-sonli qarorining 14-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida “Ichki bozor ehtiyojlarini qondirish uchun yuqori reproduksiyali urug‘lik kartoshkani 2018-2022 yillarda rivojlantirish to‘g‘risida”² chora tadbirlar dasturidagi vazifalarni bajarishda urug‘lik kartoshkani yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklar va boshqa sub‘yektlarining, hamda olim-mutaxassislarining mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan meva-sabzavotlar bilan ta‘minlashda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Mamlakatimizda iste‘mol va urug‘lik kartoshka yetishtirishni ko‘paytirish, kartoshkachilik sohasida klaster va kooperatsiya mexanizmlarini kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalar asosida sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, ichki bozor talabini qondirish, uning eksportini kengaytirish, ekin maydonlarining 50 foizida urug‘lik kartoshkaning superelita va elita avlodlarini yetishtirish, ilg‘or texnologiyalar,

¹ <https://agroinspeksiya.uz/uz/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-fevraldagi PQ-3558-sonli qarorining 14-bandi ijrosi.

innovatsion yechimlar va ilm-fan yutuqlarni keng joriy etish”³ ga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekistonda “Urug‘ tuproq, o‘simlik” dan iborat murakkab biologik obyektga bosqichli va mavsumiy ishlov berishni ko‘zda tutuvchi agroelektrotexnologiyaning samaradorligini kartoshka yetishtirishda qo‘llab, ekologik sof, sifat ko‘rsatgichlari yuqori bo‘lgan kartoshka yetishtirishni ta’minlaydigan elektr ta’sirning rejim parametrlarini aniqlashga bag‘ishlangan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” va V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof – muhit muhofazasi” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganganlik darajasi. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ga ekish oldidan elektr ishlov berish, o‘simlikni vegetatsiya davrida avjlantirish va zararsizlantirish bo‘yicha ilm-fanni rivojlanishiga sezilarli ulushni xorijda D.Ch.Bos, P.N.Listov, L.G.Prishep, A.M.Basov, I.I.Martknenko, N.A.Klimov, I.F.Borodin, V.I.Tarushkin, A.A.Niyazkulov, S.V Oskin, V.I.Bayev, V.N.Savchuk, A.P.Dubrov. O‘zbekistonda A.A.Saidxodjayev, Sh.G.Aydarov, A.Muxammadiyev, A.Yusubaliyev, P.Musabekov, X.M.Muratov, Sh.M.Muzafarov, M.Jo‘rabaev, A.Denmuxammadiyev, X.Mirzaaxmedov, A.Boqiyev, O.J.Primov, A.T.Rosoboyev va boshqalar qo‘shganlar.

Lekin kartoshka yetishtirishda urug‘ga va o‘simlikka hamda tuproqqa tizimli va bosqichli elektrotexnologik ta’sirni ko‘zda tutuvchi agroelektrotexnologiya ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Fan va texnologiyalar bo‘yicha ilmiy kengash majlisid 2021-yil 27-dekabrda muhokomadan o‘tkazilib O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan. 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zRFAning Energetika muammolari institutining elektrotexnologiyalar va energetik uskunalarni ekspluatatsiyasi ilmiy tadqiqot laboratoriyasining “Urug‘, to‘proq, o‘simlik” ga elektrotexnologik ta’sir etishni ta’minlaydigan turkum energetik uskunalarni yaratish dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bahorgi mavsumda ekiladigan kartoshka urug‘iga, kartoshka ekiladigan yer maydoni hamda ushbu kartoshka urug‘idan unib chiqqan o‘simlikka vegetatsiya davrida bosqichli elektrotexnologik ishlov berish va yangi kovlab olingan kartoshkaga yuqorida keltirilgan tarzda elektrotexnologik ta’sir

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

etish hisobiga yozgi mavsumda kartoshka ekib undan kuzda ekologik sof va kasalliklarga chidamli urug'lik kartoshka olishni asoslashdir.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

urug', tuproq va o'simlikka elektrotexnologik ishlov berish uchun yaratilgan universal agroelektrotexnologiyaga asosan amaldagi kartoshka yetishtirish agroteknologiyasi o'rniga yangi agroelektrotexnologiya ishlab chiqish;

kartoshka urug'iga, tuproqqa va o'simlikka vegetatsiya davrida UBN bilan ishlov beradigan bakterisid lampali statsionar elektr tarmog'iga va avtonom elektr manbayiga ulanadigan statsionar holatda hamda traktor va qishloq xo'jalik mashinalari bilan agregatlab va urug', tuproq va o'simlikni nurlaydigan nurlatgichlarni yaratish va ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazish;

ishlab chiqarish sharoitida kartoshka yetishtirishda agro elektrotexnologiyaning kartoshka urug'i va o'simligiga vegetatsiya davrida elektr ta'sir rejim parametrlarini aniqlash;

ishlab chiqarish sharoitida bahorda agroelektrotexnologiyani qo'llab, yetishtirilgan kartoshkani yozda elektrotexnologiya qo'llab ekib, o'stirib kuzda kelgusi yili bahorda ekiladigan kartoshka urug'ini tayyorlash.

Tadqiqotning obykti sifatida urug'lik kartoshkani, tuproq va o'simlikni vegetatsiya davrida nurlaydigan ultrabinafsha nurlatgich olingan.

Tadqiqotning predmeti. Urug'lik kartoshkani, tuproq va o'simlikni vegetatsiya davrida ultrabinafsha nur ta'sirida avjlantirish jarayonini ifodalaydigan analitik bog'lanishlarni ish rejimlariga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida elektrotexnika, oliy matematika va matematik statistikaning qonun va qoidalari mavjud me'yoriy hujjatlar, shuningdek qishloq xo'jalik ekinlari samaradorligini aniqlash bo'yicha dala tajribalarini o'tkazish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kartoshka urug'ini, ekish oldidan va ekish bilan birga tuproq hamda o'simlikni vegetatsiya davrida avjlantirishni o'z ichiga olgan agroelektrotexnologiya ishlab chiqildi. Ushbu texnologiya amaliyotini ta'minlaydigan to'lqin uzunligi 253,7 va 300 nm bo'lgan bakterisid lampalar bilan jihozlangan nurlatgich dala sinovidan o'tkazildi.

urug'lik kartoshkaga ekish oldidan, tuproq va o'simlikka vegetatsiya davrida elektrotexnologik ishlov berishning me'yoriy parametrlari: UBN $[(P_{253,7} + P_{300}) = 60+30W$; $\tau=15,8\div 17,9$ minut; $H=29,5\div 31,25$ sm; dozasi $8,2+14,5$ W/sm²] hosilning son va sifat ko'rsatgichlariga bog'liq ravishda ishlab chiqarish sharoitida agroteknik tajribada aniqlangan.

bahorgi mavsumda urug'lik kartoshkaga, tuproq va o'simlikka vegetatsiya davrida elektrotexnologik ishlov berilib yetishtirilgan kartoshkani yozgi mavsumda urug'lik sifatida elektrotexnologik ishlov berib ekib, o'stirib kuzda, undan bahorda ekiladigan urug'lik kartoshka yetishtirish mumkinligi ishlab chiqarish sharoitida ilk bor aniqlangan.

biologik obyekt (kartoshka urug'i va o'simlik) ga to'lqin uzunligi 253,7+300 nm bo'lgan UBN bilan bir vaqtning o'zida ta'sir etish hisobiga

hujayrada kechadigan jarayonlarni mo‘‘tadil kechishiga energetika yetishmasligini bartaraf etish mumkinligi ilk bor agrotexnik aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: urug‘lik kartoshka, tuproq va o‘simlikka bahorgi, yozgi va kuzgi mavsumlarda elektrotexnologik ishlov berib ekologik sof, kasallik va zararkunandalarga chidamli urug‘lik va tovar kartoshka yetishtirish agroelektrotexnologiyasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan agroelektrotexnologiyani amaliyotda ishlab chiqarish sharoitida joriy etilishini ta‘minlaydigan to‘lqin uzunligi 253,7 va 300 nm bakterisid lampalar bilan jihozlangan nurlatgich yasab ishlab chiqarish sharoitida kartoshkani elektrotexnologik usulda avjlantirishning me‘yoriy parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usul va o‘lchov vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro adekvatligi, urug‘lik kartoshka, tuproq va o‘simlikni UBN bilan nurlash hisobiga avjlantirib ekologik sof, kasalliklardan zararsizlantirilgan kartoshka olish bo‘yicha ijobiy natijalar olinganligi hamda agroelektrotexnologiya va nurlatgichlarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati urug‘lik kartoshkani, tuproq va o‘simlikni avjlantirish jarayonlarini ifodalaydigan analitik bog‘lanishlar va regressiya tenglamalari olinganligi, ulardan boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i va o‘simliklarni avjlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan agrotexnologiya qo‘llab yetishtirilgan kartoshka hosili amaldagi agrotexnologiya qo‘llab yetishtirilgan kartoshka hosilidan gektariga 8,2 tonnaga ko‘pligi va sof foyda 21,7 mln. so‘mni tashkil qilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek elektrotexnologiya qo‘llab yozda yetishtirilgan kartoshkani kuzgi hosil olish uchun elektrotexnologiya qo‘llab ekib kelgusi yil bahorda ekish uchun ekologik sof zararsizlantirilgan urug‘lik kartoshka yetishtirish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Natijada 1 gektar maydon hisobiga amaldagi agrotexnologiya qo‘llab yetishtirilgan kartoshkadan 8,2 tonnaga ko‘p hosil olingan. Elektrotexnologiya asosida ekologik sof urug‘lik kartoshka yetishtirish agroelektrotexnologiya va uning amaliyotini ta‘minlaydigan energetik qurilmalar (statsyonar va traktor) bilan agregatlanadigan UBN nurlatgichlar Toshkent viloyati Quyi-Chirchiq tumanidagi ‘‘TCT Agro Cluster’’ ma‘suliyati cheklangan jamiyati ‘‘Ulug‘bek 1\1 uchastkasi’’ da ishlab chiqarish sharoitida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 2-noyabrdagi № 07/34-05/5640-son ma‘lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta jumladan, 3ta Scopus bazasidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda 1 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan va maqullangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarning asosiy ilmiy

natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, horijiy jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan. Shu bilan birga, ixtiro uchun O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk Agentligining dasturiy mahsulot uchun 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlarga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ishonchliligi, ularning amaliyotga joriy etilishi bayon qilingan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Aholini kartoshka bilan, respublika fermer xo‘jaliklarini urug‘lik (kartoshka) material mahsulot bilan ta‘minlash masalasining holati tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida xorijda va respublikamizda mazkur yo‘nalishda nashr etilgan ilmiy ishlar sharhlangan, jumladan kartoshkani xalq xo‘jaligida ahamiyati va tarqalishi aholini kartoshka bilan, ishlab chiqarishdagi klasterlar va fermer xo‘jaliklarini urug‘lik material bilan ta‘minlashning holati kartoshkaning tarixiy tarqalishi xalq-xo‘jaligidagi ahamiyati, kartoshkani ekish, o‘stirish va yetishtirish uchun tuproq-iqlim sharoitlari xususiyatlari, amaldagi ishlab chiqarishda keng qo‘llanilayotgan tovar va urug‘lik kartoshka navlari, respublikamiz aholisi jon boshiga kartoshka ehtiyoji, urug‘lik kartoshkaning talab qilinadigan miqdori, kartoshkaning ozuqaviy qiymati va kimyoviy tarkibi, tovar va urug‘lik kartoshka yetishtirish bo‘yicha mavjud agrotexnologiyalar va mashinalar majmuasi, urug‘lik kartoshkani ekishga tayyorlash uchun saqlash va mavjud ekish texnologiyalari to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Urug‘lik kartoshka yetishtirish elektrotexnologiyasini nazariy asoslash”** bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili va dissertatsiya doirasida bajariladigan ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda ilk bor “Urug‘, tuproq, o‘simlik” dan tashkil topgan murakkab biologik obyektga bosqichli elektrotexnologik ta‘sir etish agroelektrotexnologiyasi, ushbu texnologiyani amaliyotini ta‘minlaydigan ultrabinafsha nur tarqatuvchi nurlatgichlarning tasnifi hamda ushbu elektrotexnologiyani samaradorligini aniqlash bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Biologik obyekt (kartoshka urug‘i va o‘simlik) to‘lqin uzunligi 253,7+ 300 nm bo‘lgan UBN bilan bir vaqtning o‘zida ta‘sir etish hisobiga hujayrada kechadigan jarayonlarni mo‘‘tadil kechishiga energetika yetishmasligini bartaraf etish mumkinligi ilk bor agrotexnik aniqlangan. Urug‘lik kartoshkaning sifatini baholovchi ko‘rsatkichlarini (unib chiqishi, unib chiqish energiyasi, yashovchanlik darajasi) ta‘minlovchi UBN to‘lqin uzunligi va ishlov berish davomiyligi parametrlari o‘zgarish chegaralarini aniqlash uchun funksional bog‘liqliklarni

Amaldagi kartoshka yetishtirish texnologiyasiga ko'ra, bahorgi mavsumda urug'lik kartoshka ekiladigan maydonga elektotexnologik ishlov berilib urug'lik kartoshka ekishga tayyorlanadi va kartoshka mexanik usulda ekiladi.

Tuproqqa elektrotexnologik ishlov berish uchun traktorning old qismiga yoxud maydonni ekishga tayyorlaydigan mexanik qurilmaga UBN yoritgich o'rnatiladi. Tuproqni nurlantirish davomiyligi uni ekishga tayyorlash davomiyligiga teng bo'ladi. Ushbu nurlantirishdan maqsad tuproqdagi zararli va foydali mikroorganizmlarni hujayra darajasida seskantirishni o'z ichiga oladi. Yoritgichlarning quvvati 60÷120 W bo'lishi mumkin. Tuproqni nurlantirish uzunligi, UBN bilan nurlantirish quvvati 30+30 W dan kam bo'lmasligi sharti bilan 253,7+300 nm bo'lishi shart. Bundan yuqori quvvatlarda tuproqni nurlantirish uning xususiyatidan va tuproqdagi mikroorganizmlar turi va sonidan kelib chiqib, eksperimental aniqlanadi.



2-rasm. Bosqichli elektrotexnologik ta'sir qo'llab bahorgi - yozgi, yozgi - kuzgi va kelgusi yil bahorgi mavsumlarda ekologik sof, kassalik va zararkunandalarga chidamli kartoshka yetishtirish texnologik xaritasi

Agroelektrotexnologik usulda urug'lik kartoshka ekish uchun amaldagi agrotexnologiya bo'yicha urug'lik kartoshka ekiladigan yer maydoni ekishga mexanik usulda tayyorlanish jarayonida, bir vaqtda elektrotexnologik ishlov beriladi.

Ekishdan avval urug'lik kartoshka UBN bilan nurlantiriladi. Ekish jarayonida bir vaqtning o'zida urug'lik kartoshka va tuproq ikkinchi marotaba nurlanadi. Urug'dan o'simlik unib chiqgach sug'orishdan avval o'simlik qator oralarida sug'orish uchun mexanik usulda jo'yaklar ochiladi.


Ushbu tadbir amalda o'simlikga organik va mineral o'g'itlar berilishi bilan birga amalga oshiriladi. Ushbu agrotexnik jarayon bilan birga o'simlik va tuproqqa elektrotexnologik ta'sir amalga oshiriladi.

Agrotexnik talabga ko'ra kartoshka vegetatsiya davrida necha marta sug'oriladigan bo'lsa, shuncha marta o'simlik va tuproqqa sug'orishdan oldin, qator oralariga jo'yak ochish bilan birga elektrotexnologik ishlov beriladi.

Bahorda ekilgan kartoshka hosili yozda kovlab olinib elektrotexnologik ishlov beriladi va tinimga (bir oy mobaynida 05 avgustgacha) qo'yiladi. Urug'lik kartoshkaning merostematik qismida o'simtalar hosil bo'lganda nurlab ekiladi.

Yozgi mavsumda tinimdagi kartoshkaga elektrotexnologik ishlov berilib urug'lik sifatida ekiladi. Yozgi mavsumda kartoshka yetishtirish agroelektrotexnologiyani yuqorida keltirilgan bahorgi kartoshka yetishtirish agroelektrotexnologiyasi kabi amalga oshiriladi.

Yozda ekilgan kartoshka kuzda kovlab olinib, saralanadi va undan kelgusi yil bahorda ekish uchun urug'lik kartoshka ajratilib, elektrotexnologik ishlov berilib bahorgi mavsumgacha amaldagi agrotexnik talablarda belgilangan tartibda omborxonalarda saqlanadi.



3-rasm. Bir lampali UBN tarqatuvchi bakteritsid lampaning XXR ishlab chiqarilgan ballastga ulanish sxemasi. Elektr tarmog'iga, akkumulyator va invertordan tashkil topgan avtonom energiya manbayiga ulanishi

Bahorda urug‘lik kartoshka ekish oldidan elektrotexnologik ishlov berilib, ekiladi. Vegitatsiya davrida yuqorida keltirilgan o‘simlikka va tuproqqa agroelektrotexnologik ishlov berish kabi amalga oshiriladi.

Ushbu agroelektrotexnologiyani amaldagi kartoshka yetishtirish agrotexnologiyasi bilan solishtirish tadqiqotlarini ishlab chiqarish sharoitida “urug‘, tuproq, o‘simlik” ga elektrotexnologik ishlov berib kartoshka yetishtirish jarayonida elektr ta’sirining rejim parametrlari bir va ko‘p omilli eksperimental tadqiqotlarda aniqlandi.

Hujayra darajasida DNK ga UBN bilan ta’sir qilish va kartoshkaning Parenxim qismiga UBN bilan ishlov berish bo‘yicha fundamental va bir omilli eksperimental tadqiqotlarda o‘rganilgan parametrlarining maqbul qiymatlari ko‘p omilli eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib aniqlandi.

Tadqiqotlarni o‘tkazishda ish sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar tanlandi:

Nurlantirish lampalar quvvati, W;

UB nur berish vaqti, min;

UB nur berish balandligi, sm.

1-jadvalda omillar, ularning shartli belgilanishi, variatsiyalanish (o‘zgarish) oralig‘lari va sathi keltirilgan. Ular olib borilgan nazariy tadqiqotlar va bir omilli tajribalar natijalariga ko‘ra belgilandi. Ta’sir etuvchi omillar quyidagicha shartli belgilanib (kodlashtirilib) olindi:

X_1 – Nurlantirish lampalar quvvati, W;

X_2 – UB nur berish vaqti, min;

X_3 – UB nur berish balandligi, sm

1-jadval

Asosiy omillar va ularning o‘zgarish chegaralari

T/r	Omillarning nomlanishi	Belgilanishi		O‘zgarish chegarasi			O‘zgarish oralig‘i
		Haqiqiy	Kodlangan	-1	0	+1	
1	Nurlantirish lampalar quvvati, W	P	X_1	30	60	90	30
3	UB nur berish vaqti, min	t_{ubn}	X_3	5	10	15	5
2	UB nur berish balandligi, sm	N_{ubn}	X_2	20	30	40	10

Tajribalar to'liq uzunligi $\lambda=253,7$ nm va $\lambda=300$ nm bo'lgan UBN bilan bir vaqt davomida o'tkazildi. 2-jadvalda omillar, ularning shartli belgilanishi, variatsiyalanish (o'zgarish) oralig'lar va sathi keltirilgan.

2-jadval

Asosiy omillar va ularning o'zgarish chegaralari

T/r	Omillarning nomlanishi	Belgilanishi	O'zgarish chegarasi			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Nurlantirish lampalar quvvati, W	X_1	P=30 $\lambda=254$ P=30 $\lambda=300$	P=60 $\lambda=254$ P=30 $\lambda=300$	P=30 $\lambda=254$ P=60 $\lambda=300$	
2	UB nur berish balandligi, sm	X_2	10	20	30	40
3	UB nur berish vaqti, min	X_3	5	5	10	15

Baholash mezonlariga omillarning ta'sirini ikkinchi darajali polinom to'liq yoritib beradi deb taxmin qilinib, eksperimentlar Xartli-3 rejasi bo'yicha o'tkazildi.

Ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezoni sifatida bahorda ekib yetishtirilgan urug'lik kartoshkaning og'irligi va tuganaklar soni qabul qilindi.

Tajribalardan olingan ma'lumotlarga "PLANEX" dasturi bo'yicha ishlov berildi. Bunda dispersiyaning bir xilligini baholashda Koxren mezonidan, regressiya koeffitsiyentlarini qiymatini baholashda Styudent mezonidan, regression modellarning adekvatligini baholashda Fisher mezonidan foydalanildi.

a) tajriba natijalariga ko'rsatilgan tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini, ya'ni tuganaklar sonini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- umumiy kartoshkalar tuganaklari soni bo'yicha, dona;

$$Y1 = +43,512 - 0,814X_1 + 1,245X_2 + 0,761X_3 - 6,859X_1X_1 + 0,499X_1X_2 - 0,263X_1X_3 - 4,886X_2X_2 - 0,213X_2X_3 - 3,133X_3X_3 \quad (1)$$

- yirik kartoshkalar tuganaklar soni bo'yicha, dona;

$$Y2 = +11,664 - 0,464X_1 + 0,542X_2 + 0,446X_3 - 2,136X_1X_1 + 0,223X_1X_2 - 0,355X_1X_3 - 2,134X_2X_2 + 0,635X_2X_3 - 0,441X_3X_3 \quad (2)$$

- o'rtacha kartoshkalar tuganaklar soni bo'yicha, dona;

$$Y3 = +6,146 - 0,314X_1 + 0,024X_2 + 0,466X_3 - 0,731X_1X_1 + 0,048X_1X_2 - 0,038X_1X_3 - 0,731X_2X_2 - 0,603X_2X_3 + 0,969X_3X_3 \quad (3)$$

b) tuganaklar og'irligi adekvat ifodalovchi regressiya tenglamalari:

- umumiy kartoshkalar tuganaklar og'irligi bo'yicha, kg;

$$Y4 = +1,468 + 0,005X_1 - 0,030X_2 - 0,022X_3 - 0,360X_1X_1 + 0,044X_1X_2 + 0,011X_1X_3 - 0,188X_2X_2 + 0,011X_2X_3 + 0,014X_3X_3 \quad (4)$$

- yirik kartoshkalar tuganaklar og'irligi bo'yicha, kg;

$$Y5 = +0,956 + 0,005X_1 - 0,030X_2 - 0,022X_3 - 0,360X_1X_1 + 0,044X_1X_2 + 0,011X_1X_3 - 0,186X_2X_2 + 0,012X_2X_3 + 0,014X_3X_3 \quad (5)$$

- o'rtacha kartoshkalar tuganaklar og'irligi bo'yicha, kg;

$$Y6 = +0,678 + 0,004X_1 - 0,033X_2 - 0,033X_3 - 0,353X_1X_1 + 0,036X_1X_2 + 0,013X_1X_3 - 0,179X_2X_2 + 0,015X_2X_3 + 0,020X_3X_3 \quad (6)$$

3-jadval

Maqbul qiymatlari (tuganaklar soni bo'yicha)

X ₁		X ₂		X ₃	
Kodlangan	Natural, W	Kodlangan	Natural, cm	Kodlangan	Natural, m
1	P=30 λ=254 P=30 λ=300	-0,635	23,65	0,3556	16,7779
0	P=60 λ=254 P=30 λ=300	0,125	31,25	0,1172	15,5860
-1	P=30 λ=254 P=60 λ=300	0,051	30,50541	0,7788	18,8938

(1-6) regressiya tenglamalarini tahliliga ko'ra, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Parametrlarning maqbul qiymatlarini aniqlashda (1,2,3) regressiya tenglamalari PK kompyuterida Excel dasturini "yechimni qidirish" (poisk resheniya) amali bo'yicha yechildi.


Regressiya tenglamalarini kartoshka tuganaklarining soni maksimal qiymatga ega bo'lishi shartidan yechilib, omillarning ushbu shartni bajarilishini ta'minlovchi qiymatlari aniqlandi. Olingan natijalar 3- jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi usulni qo'llab kartoshkalarining tuganaklarining (4,5,6) regressiya tenglamalarini kartoshka tuganaklarining og'irligi maksimal qiymatga ega bo'lishi shartidan yechilib, omillarning ushbu shartni bajarilishini ta'minlovchi qiymatlari aniqlandi. Olingan natijalar 4- jadvalda keltirilgan.


4- jadval

Maqbul qiymatlari (tuganaklar og'irligi bo'yicha)

X ₁		X ₂		X ₃	
Kodlangan	Natural, W	Kodlangan	Natural, cm	Kodlangan	Natural, m
1	P=30 λ=254 P=30 λ=300	0,066	30,66	0,6270	18,1350
0	P=60 λ=254 P=30 λ=300	-0,051	29,49	0,5974	17,9870
-1	P=30 λ=254 P=60 λ=300	-0,226	27,73936	0,4914	17,4568




a)




b)

1,2 va 3 mos ravishda, nurlantirish davomiyligi 5, 10 va 15 minut $P=30$ W, (a) $\lambda=253,7$ nm va $P=30$ W, (b) $\lambda=300$ nm X_2 va X_3 omillarini kartoshkaning tuganagi umumiy soniga bog'liqligi

4-rasm. "Gala" navli kartoshka urug'iga alohida-alohida 253,7 va 300 nm to'liqin uzunligida ultrabinafsha nur bilan ta'sir etilgandagi natijalari





a)



b)

$P=60$ W, (a) $\lambda=253,7$ nm va $P=30$ W, (b) $\lambda=300$ nm



5-rasm. "Gala" navli kartoshka urug'iga alohida-alohida 253,7 va 300 nm to'liqin uzunligida ultrabinafsha nur bilan ta'sir etilgandagi natijalari



a)

b)

6-rasm. “Gala” navli kartoshka urug‘iga alohida-alohida 253,7 va 300 nm to‘lqin uzunligida ultrabinafsha nur bilan ta’sir etilgandagi natijalari



a)

b)

$P=30\text{ W}$, $\lambda=253,7\text{ nm}$ (a) va $P=60\text{ W}$, $\lambda=300\text{ nm}$ (b)

7-rasm. “Gala” navli kartoshka urug‘iga alohida-alohida 253,7 va 300 nm to‘lqin uzunligida ultrabinafsha nur bilan ta’sir etilgandagi natijalari

Dissertatsiyaning “Urug‘, tuproq, o‘simlik” dan tashkil topgan biologik obyektga bosqichli elektrotexnologik ishlov berish hisobiga kartoshka yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash” deb nomlangan bobida urug‘lik va tovar kartoshka yetishtirishda amaldagi agrotexnologik va agroelektrotexnologik usularni qo‘llashning o‘zaro taqqoslangan iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida joriy yilning bahorgi va yozgi mavsumda

Toshkent viloyati Qo‘yi-Chirchiq tumanida joylashgan “TCT Agro Cluster” ma’suliyati cheklangan jamiyatning “Ulug‘bek” 1/1 uchastkasida ishlab chiqarish sharoitida dala tajribalari o‘tkazildi.

Gala navli kartoshka urug‘i 22 gektar maydonga bahorgi mavsumda ekildi, shundan bir gektarida elektrotexnologik usul qo‘llab ekilgan va o‘stirilgan kartoshka yetishtirildi.

Kartoshka urug‘ini ekishga tayyorlash, ekish, vegetatsiya davrida qator oralarini yumshatish, o‘g‘itlash, sug‘orish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurashish, yetishtirilgan hosilni kovlab olish va daladan klasterning omborxonalarigacha olib borishga sarflangan xarajatlar klasterning iqtisod bo‘limidan olinib bir gektar maydon hisobiga aniqlandi.

Kartoshka urug‘iga ekish oldidan ishlov berishdan tashqari o‘simlikga vegetatsiya davrida barcha agrotexnologik ishlov berishlar ekish, qatorlarni yumshatish, o‘g‘itlash, sug‘orish, hosilni kovlab va omborxonaga olib borish tadbirlari elektrotexnologik usul qo‘llab ekilgan maydonda ham olib borilganligi sababli bu tadbirlarga sarflangan xarajatlar tajribadagi yetishtirilgan kartoshkada ham bir xil qilib olindi. Shuningdek, kartoshkani ekish, vegetatsiya davrida o‘simlik qator oralarini yumshatib sug‘orish uchun jo‘yak olish, o‘g‘itlash tadbirlarini o‘tkazish jarayoni elektr ishlov berish bilan bir vaqtning o‘zida o‘tkanligi sababli ushbu elektrotexnologik tadbirlarga sarf xarajat qilinmadi.

Chunki ushbu agrotexnik tadbirlar bilan birga tuproq va o‘simlikga UB nur bilan ishlov berildi. Yoritgichlar traktorning akkumulyatoriga ulanganligi sababli elektr energiya xarajati bo‘lmadi.

Yozda kovlab olingan kartoshka nazoratda va tajribada yirik, o‘rta va mayda fraksiyalarga bo‘linib ularning bir tupdagi soni aniqlandi, shuningdek ushbu fraksiyalardagi kartoshka tuganaklarning og‘irligi hamda umumiy hosildorlik aniqlandi. Ushbu natijalar asosida elektrotexnologik ishlov berishning muqobil parametrlari 3 omilli regression tahlil qilinib aniqlandi (III-bobda keltirilgan). Ushbu bobda ishlab chiqarish sharoitida bir gektar maydonda elektrotexnologiya qo‘llab bahorgi mavsumda ekilgan Gala navli kartoshka urug‘idan olingan hosilga ketgan xarajatni amaldagi agrotexnik usulda ekib yetishtirilgan kartoshkaga sarflangan xarajat bilan qiyosiy solishtirish natijasi keltirilgan.

Tajriba maydonida elektrotexnologik usul qo‘llab kartoshka yetishtirish II-bobda keltirilgan agroelektrotexnologiyaga asosan amalga oshirildi. Dastlab kartoshka ekiladigan yer maydonini tayyorlash jarayonida tuproqni tekislash bilan bir vaqtda tuproqqa har biri 6 lampalik (3 lampa 253,7 nm, 3 lampa 300 nm, quvvati 30 W dan) yoritgich bilan nurlantirildi. Tuproqdan yoritgichgacha bo‘lgan masofa 20/30 sm., traktorning harakat tezligi 0.5m/sek.

Tajriba uchun ajratilgan yer maydonidagi tekislab nurlatilgan tuproqqa mexanik usulda turli variantlarda UBN bilan ishlov berilgan 2500 kilogramm urug‘lik kartoshka ekildi. Ekish jarayonida urug‘lik kartoshka va tuproq UB nurlantirildi.



8-rasm. Kartoshka urug‘larni traktor bilan ultrabinafsha nurlantirishning umumiy ko‘rinishi

O‘simlik unib chiqgach vegetatsiya davrida o‘simlikni sug‘orish oldidan 3 marta qator oralariga ikki marta 200 kg dan azot fosfor solinib 3 marta jo‘yaklar ochish bilan bir vaqtda o‘simlikga UBN bilan ishlov berildi.

Amaldagi agrotexnik tadbirlar va ularni o‘tkazishga ketgan xarajatlar klasterning iqtisodiy bo‘limidan olindi, agrotexnik tadbirlar ishlab chiqarish sharoitida kuzatib borildi. Yetishtirilgan hosil nazorat va tajribada mexanik usulda kovlab olinib bir gektar maydondan olingan hosil aniqlandi. Tajriba maydonidagi bir gektar maydondan olingan umumiy hosil 27,2 tonnani tashkil etdi. Nazoratdagi hosil esa 18,9-19 tonnani tashkil etdi.

XULOSA

“Elektrotexnologiya asosida ekologik sof urug‘lik kartoshka yetishtirish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

- qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i va o‘simlikka elektrotexnologik usulda ishlov berib ularni avjlantirish, kasallik va zararkunandalardan himoya qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning tahliliga asosan “urug‘, tuproq, o‘simlik”dan tashkil topgan murakkab biologik obyektga umumiy va bosqichli elektrtexnologik ishlov berish hisobiga ekologik sof kasallik va zararkunandalarga chidamli urug‘lik kartoshka yetishtirishning dolzarbligi asoslandi.

- biologik obeykt (kartoshka urug‘i va o‘simlik) ga to‘lqin uzunligi 253,7+ 300 nm bo‘lgan UBN bilan bir vaqtning o‘zida ta’sir etish hisobiga hujayrada kechadigan jarayonlarni mo‘‘tadil kechishiga energetika yetishmasligini bartaraf etish mumkinligi ilk bor agrotexnik aniqlandi.

- bir omilli va ko‘p omilli tajribalarga asosan bahorgi mavsumda ekib, elektrotexnologiya qo‘llab yetishtirilgan kartoshkani baholash mezonlarini, ya’ni tuganaklar sonini va og‘irligini adekvat ifodalovchi turkum regression tenglamalar olingan. Ishlab chiqarish sharoitida dala tajribalarida bahorgi va yozgi mavsumda

kartoshka urug'iga, tuproqqa va o'simlikka elektrotexnologik ishlov berishni quyidagi maqbul rejim parametrlari aniqlangan.

Yozgi mavsumda elektrotexnologiya qo'llab yetishtirilgan kartoshka urug'lik sifatida 23-iyul kuni ekilib 10-noyabrda ushbu kartoshka hosili kovlab olindi. Kovlab olingan kartoshka hosili bir gektarga tajribada 13 tonna, nazoratda 7,8 tonnani tashkil etdi.

- ishlab chiqarish sharoitida bahorgi mavsumda ekiladigan kartoshka urug'iga va vegetatsiya davrida o'simlikka bosqichli elektrotexnologik ta'sir etib ekologik sof kasallik va zararkunandalarga chidamli tovar va urug'lik kartoshka yetishtirish amaldagi agrotexnologiya qo'llanilib yetishtirilgan kartoshkadan samarali ekanligi aniqlandi. Elektrotexnologiya qo'llanilib bahorgi mavsumida yetishtirilgan kartoshka hosili amaldagi agrotexnik usulda yetishtirilgan kartoshka hosilidan gektariga 8,2 tonnaga ko'p bo'lib, sof foyda 21,7 mln. so'mni tashkil etdi. Agrotexnik yozgi mavsumda ekilib kuzda yetishtirilgan kartoshka hosili tajribada bir gektarga 13 tonna, nazoratda 7,8 tonnani tashkil etdi.

- elektrotexnologiyani qo'llab bahorgi mavsumda ekilib yetishtirilgan kartoshka tuganaklariga bosqichli va majmuiy elektrotexnologik ishlov berilib ekilib, vegetatsiya davrida o'simlikga bosqichli va majmuiy elektrotexnologik ta'sir etib, kelgusi yil bahorda ekiladigan ekologik sof va kasalliklarga chidamli kartoshka urug'ini olish mumkinligi ilk bor ishlab chiqarish sharoitida asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.10.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКИЙ
ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

САНБЕТОВА АМАНГУЛ ТУРКМЕНБАЕВНА

**ВЫРАЩИВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ЧИСТОГО СЕМЕННОГО
КАРТОФЕЛЯ НА ОСНОВЕ ЭЛЕКТРОТЕХНОЛОГИИ**

05.05.07 – «Электротехнология и электрооборудование в сельском хозяйстве»

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/T4256

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiame.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Мухаммадиев Ашираф
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Муратов Хаким Махмудович
доктор технических наук, профессор

Боқиев Абдужоллол Абдулхамидович
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. в ____ часов в зале заседаний Научного совета № DSc.03/30.12.2019.T.10.01 при Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства». (Адрес: 100000, Ташкент, улица Кары Ниёзий, 39. Тел.: (+99871) 237-09-45; факс: (+99871) 237-38-79. e-mail: admin@tiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре (зарегистрирована под номером ____) Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства». (Адрес: 100000, Ташкент, улица Кары Ниёзий, 39. Тел.: (+99871) 237-09-45; факс: (+99871) 237-38-79. e-mail: admin@tiame.uz)

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.

(Протокол рассылки № «__» от «__» _____ 2024 г.).

Б.С.Мирзаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.Т. Кузиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент.

А.Ж. Исаков

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней,

д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире ведущее место занимают задачи повышения показателей качества семян сельскохозяйственных культур, в том числе картофеля, разработка технических средств и внедрение их в производство, обеспечивающие использование энерго и ресурсосберегающие, высокопроизводительные агротехнологии с целью обеспечения продовольственной безопасности населения земли за счет производства экологически чистых, устойчивых к заболеваниям и вредителям семенного и товарного картофеля¹.

В мире и в Республике Узбекистан, в настоящее время картофельная, продукция используется для пищи. После риса и пшеницы, ее не зря называют «вторым хлебом». В связи с этим усиленно ведутся научно-исследовательские работы по разработке экологически чистых агротехнологии и ресурсосберегающей техники, позволяющие повысить количественные и качественные показатели продуктов и картофеля. В этом смысле разработка агроэлектротехнологии, обеспечивающей электрообработку семенного картофеля и проросших стеблей в период вегетации и обоснование оптимальных режимных параметров является актуальным.

На сегодняшний день картофель выращивается в более 160 стран мира на площади 19,5 млн гектар и собирается более 390 млн. тонн урожая. Картофель в больших объемах выращивается в таких странах как Китай, Индия, Россия, Украина, США, Германия, Франция, Польша, Голландия и Белоруссия. Рост производства картофеля растет в таких основном за счет применения инновационных технологий. Средний урожай картофеля в США, Германии, Франции и Голландии составляет около 45,7-47,9 т/га.

В целях обеспечения реализации задач пункта 14 Постановления Президента Республики Узбекистан от 23 февраля 2018 года за номером ПҚ-3558 «О развитии производства высокорепродуктивного семенного картофеля в 2018-2022 годах, с целью удовлетворения потребности внутреннего рынка»² и поставленных перед фермерскими хозяйствами, специализирующихся на производстве семенного картофеля, а также для научных специалистов в области сельского хозяйства. Все это остается важной задачей для обеспечения населения Республики Узбекистан продуктами питания, в том числе фруктами и овощами.

В Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 мая 2020 года под номером ПҚ-4704 «О мероприятиях по совершенствованию семеноводства и расширения производства картофеля в Респ. бликке»⁴ уделено особое внимание увеличению производства семенного и товарного картофеля, расширения механизмов кооперации и кластеров в сфере картофелеводства, а также создания в сфере цепи добавочной стоимости на

¹ <https://agroinspeksiya.uz/uz/>

² Постановление Президента Республики Узбекистан от 23 февраля 2018 года номером ПҚ-3558, пункт 14.

основе современных технологий, полного удовлетворения потребности внутреннего рынка, расширения его экспорта и на 50 процентах посевной площади производить суперэлитные и элитные сорта картофеля, все шире внедрять передовые технологии и достижения науки и техники³⁵.

